

ANJUMAN | KONFERENCLAR | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

ERNEST XEMINGUEY
(1899-1961)

Chol qushlar va ayniqsa, belinim oziq
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon
uni topolmaydigan jumlil va nozik dengiz
qaldirg'ochlariga achiqib ketar va qushlar
turmushi, qirin-qora va katta, kuchli
qushlarni hisobga olmayanda, buning kun
kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir.
Okean gohida shu qadar ham beshim dollar
ekan, nima uchun qushlarni mana bu
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va
go'zal, ammo u go'ho to'satdan shunday
shaf-qatsiz bolib ketadiki, uning ustidagi
oziq dindagi chary urib chonib, o'zi va
mangli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bolib
uchgan bu qushlar unga nisbatan
beshinoya zalf va mo'ri ko'rinadi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI

AVGUST

№43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 14 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Matrizayev Murodjon	
TARIX DARSLARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH	7
2. Abdullayeva Manzura Sultanovna	
TARIX FANIDAN OLIB BORILAYOTGAN DARSLARDA O‘QUVCHILARNI GURUHLARGA BO‘LISH YO‘LLARI	8
3. Cho‘panova Fazilat Otanazarovna, Bekchanova Marganjon Kadirberganovna	
TARIX O‘QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARILARI FANINI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR	10
4. Ganjayev Umrbek Allabergan o‘g‘li, Aryazova Gulora Xayitbayevna	
TARIX DARSLARIDA O‘QUVCHILARDA TARIXGA SAYOHAT TASHKIL ETISH	12



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

ТАРИХ ДАРSLARIDA O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Matrizayev Murodjon,
Xorazm viloyati Bog‘ot tumani
3-IDUMI tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarix fanining muximligi, uning qiziqarliligi va o‘yinli texnologiyalardan foydalanish yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin, tarix, texnologiya, bilim, xona, o‘quvchi.

O‘yinli texnologiyalar ta‘lim jarayonining samaradorligini ta‘minlash, o‘quvchilarda muayyan faollikni yuzaga keltirish, shuningdek bilim ko‘nikma va malakalarni hosil qilishga xizmat qiluvchi vaqt oralig‘ini qisqartirish, ta‘limni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘yinli texnologiyalardan foydalanishda bir qator psixologik xususiyatlar ham namoyon bo‘ladiki uning oqibatida har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta oladi, ijtimoiy hayotda o‘zi egallagan o‘rnini barqarorlashtiradi, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. O‘yinli texnologiyalar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy ko‘nikma va malakalarga aylanishini ta‘minlabgina qolmay, balki o‘quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi.

O‘yinlarni tashkil etishda quyidagi maqsadlar ko‘zda tutiladi: ta‘limiy (didaktik) maqsad, tarbiyaviy maqsad, faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi maqsad, ijtimoiy maqsad.

Zakovat o‘yini.

Bu o‘yinni o‘tkazishda dastlab xonani o‘yinga moslashtirish lozim bo‘ladi.

O‘yin ishtirokchilari test yordamida saralab olinadi. Yuqori ball olgan o‘quvchilar o‘yinda ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi. O‘yin qatnashchilari

6-8 kishidan iborat bo‘ladi. Qolgan o‘quvchilar esa o‘yinni tomoshabin sifatida kuzatib turishadi. O‘yin uchun mo‘ljallangan savollar konvertga joylashtirib qo‘yiladi. Guruh sardori savolni olib o‘qituvchiga beradi. O‘qituvchi savolni o‘qib eshittiradi. Javobni aniqlash uchun bir daqiqa vaqt ajratiladi. Bu vaqt orasida o‘yin ishtirokchikari javobni maslahatlashib topishga harakat qilishadi. Bu o‘yinni asosan yuqori sinfda o‘tkazish tavsiya qilinadi.

Zakovat o‘yinlarida asosan, o‘rtaga muammoli savollar tashlanib, shu muammoni hal etishga diqqat qaratiladi.

"To‘g‘ri top" o‘yini uchun ikkita plakat kerak bo‘ladi. O‘qituvchi birinchi navbatda biror mavzu bo‘yicha kalit so‘zlarni boshlanishini yozib qo‘yadi, o‘quvchi esa tartibni o‘zgartirgan holda kalit so‘zlarning davomini yozib qo‘yadi. O‘yinni 6-sinflarda "Qadimgi dunyo tarixini davrlashtirish" mavzusini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

1. Poleolit bu...
2. Mezolit bu...
3. Neolit bu...
4. Eneolit bu... va h.k

O‘yin shu tarzda davom etadi. Ushbu o‘yin o‘quvchilarda fanga yoki o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 6-sinf tarix darsligi
2. Q. USMONOV, M. SODIQOV S. BURXONOVA "O‘ZBEKISTON TARIXI" Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2016



TARIX FANIDAN OLIB BORILAYOTGAN DARSLARDA O‘QUVCHILARNI GURUHLARGA BO‘LISH YO‘LLARI

Abdullayeva Manzura Sultanovna

Urganch tuman 19-son umumiy o‘rta ta‘lim maktabi tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanidan olib borilayotgan darslarda o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish yo‘llari

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, tarixiy shaxslar, ta‘lim tizimida, guruhlar

Hozirgi davr ta‘limi taraqqiyotida tarix fanini o‘qitishda ko‘plab interfaol usullardan va pedagogik texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Lekin, pedagogik texnologiyalarni dars davomida amalga oshirish birmuncha vaqtni oladi va o‘qituvchidan o‘z ustida doimiy ravishda ishlashni talab etadi. O‘qituvchi interfaol usullarni dars davomida qo‘llashi uchun avvalo, sinfdagi o‘quvchilarni guruhlariga bo‘lishi lozim. Afsuski hozirgi kunda ta‘lim tizimida bu masalaga pedagoglar ko‘p e‘tibor qaratmaydilar. Hususan, doimiy olib borilayotgan darslarda, ochiq dars yoki seminarlarda dars o‘tayotgan o‘qituvchi guruhlarini dars boshlanishidan avval shakllantirib qo‘yadi. Aslida bu darsni to‘g‘ri tashkillashtirish qoidalariga zid keladi. Biz pedagoglar darsning tashkiliy qismini o‘tkazish bosqichida sinf o‘quvchilarini turli xil usullar bilan guruhlariga bo‘lishni o‘rganib olishimiz, so‘ngra uni amalga oshirib boriladi. O‘qituvchi darsning tashkiliy qismida sinf o‘quvchilaridan kichik guruhlar shakllantiradi. Ular dars mazmunidan kelib chiqib nomlanadi. Guruhlar nomini A4 formatdagi qog‘ozga yirik harflar bilan yozib, partaga qo‘yganda yon tomonidan ko‘rinadigan holatda bukib, foydalanishga tayyorlab qo‘yiladi. Guruhlariga nom tanlashda fanga bog‘lash, ya‘ni o‘tgan yoki yangi mavzuga bog‘liq bo‘lgan atama, joy, tarixiy shaxslar nomlari, mavzuning asosiy mazmunini tashkil etuvchi tushunchalarga alohida e‘tibor qaratishi, agar guruhlarining nomlanishi avval o‘tilgan mavzuga mos bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlari tanlagan nomlarni izohlashi lozim. Chunki, guruhdagi har bir o‘quvchi qanday nomni himoya qilayotganini va qanday nomlardagi guruhlariga qarshi kurashayotganini anglashi lozim. Shundagina guruhlardagi o‘quvchilarning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi uchun faol ishtirokini ta‘minlash mumkin. O‘qituvchi-pedagoglar tarix darslarida o‘quvchilarni kichik guruhlariga bo‘lishda va ular bilan ishlashda quyidagi me‘zon va talablarga amal qilishi lozim:

o‘quvchilarni adolatli ravishda guruhlariga ajratish;

- guruhlarining nomlanishida fanga va mavzuga bog‘liq nom tanlanishiga erishish;
- guruhlariga bo‘linish jarayonida va guruhlar o‘rtasida baxs-munozara bo‘lib o‘tayotgan vaqtda noo‘rin so‘zlarni ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- guruhlariga savollarni murakkabligiga ko‘ra teng darajada tuzish yoki barcha guruhlar uchun bir xil variantdagi savol va topshiriqlardan foydalanish;
- guruhlarda musobaqa muhiti va ijodiy-intellektual vaziyatni yaratish
- guruhda ishlayotgan o‘quvchilarni faollikka undash, qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirib borish;
- asosiysi guruhlarini kuchli-kuchsiz deb ajratmaslik, kamchiliklarini ro‘kach qilib kamsitmaslik.

Tarix fani o‘qituvchilari darslarda sinfni quyidagi usullarda guruhlariga bo‘lishi mumkin:

1. Sanoq sistemasida mavzuga oid atama va nomlar asosida guruhlar shakllantirish. Sinfdagi barcha o‘quvchilar doskaga chiqariladi. Agar ulardan to‘rtta guruh shakllantiriladigan bo‘lsa, to‘rt qator bo‘lib saflantiriladi. Har bir qatorda 6-8 nafar o‘quvchi bo‘lishi mumkin. Qatorlardagi o‘quvchilar tarix fanidan iqtidori, ya‘ni bilim darajasi eng yuqorilar birinchi qatorda, ulardan bir oz pastroq darajadagilar ikkinchi qatorda va hokazo bo‘lishiga e‘tibor berish lozim. O‘qituvchi stolida 1, 2, 3, 4 raqamlari yozilgan qog‘oz qirqimlari imtihon билетiga o‘xshatib, raqamini ostiga qilib qo‘yilgan. Birinchi qatordagi o‘quvchilar raqam tortib, qaysi raqam chiqsa, o‘sha raqamdagi guruh uchun belgilangan joyga borib o‘tiradi. 2, 3, 4 –qatordagilar ham shu tartibda o‘z guruhlarini aniqlaydilar. Guruh shakllantirib olingach, o‘qituvchi o‘tgan mavzuga oid atama, joy yoki tarixiy shaxs nomi yozilgan qog‘ozlarni doskaga



ilib qo'yadi. Bu vaqt ichida guruhlar o'z sardorlarini saylab oladilar. Sardorlar doskadagi atama yoki joy nomlaridan birini tanlab, uni izohlaydilar. Agar izoh to'g'ri bo'lsa, guruh shu atama yoki nomlardan birini tanlab, uni izohlaydilar

- Sardorlar tanlovi asosida bo'linish.

Bu usulda guruhlariga bo'lish uchun o'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning bilim darajasi va qobiliyatini juda yaxshi bilishi zarur. O'qituvchi darsga kirib, sinfdagi kuchli bilimga ega bo'lgan o'quvchilardan 3 yoki 4 tasini doska yoniga taklif qiladi va guruh shakllantirish uchun o'zlariga navbatma-navbat o'quvchi tanlashi kerakligini uqtiradi. Guruh shakllanib bo'lgach, ushbu kuchli bilimga ega bo'lgan o'quvchilarni guruh sardori etib tayinlaydi.



TARIX O'QITISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARILARI FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN TEXNOLOGIYALAR

Cho'panova Fazilat Otanazarovna
Bekchanova Marganjon Kadirberganovna
Xorazm viloyati Urganch tumani
3 – maktab tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari fanini o'qitishda foydalaniladigan texnologiyalar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiya, texnik vositalar, texnologik yondashuv.

«**Innovatsion texnologiya**- tizimli, texnologik yondashuvlar asosida ta'lim shakllarini qulaylashtirish, natijasini kafolatlash va ob'ektiv baholash uchun inson salohiyati hamda texnik vositalarning o'zaro ta'sirini inobatga olib, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirib, o'qitish va bilim o'zlashtirish jarayonlarida qo'llaniladigan usul va metodlar majmuidir». U Innovatsion texnologiyaga ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui deb qaraydi. «Innovatsion texnologiya ta'lim-tarbiyaning ob'ektiv qonuniyatlari, diagnostik maqsadlar asosida o'quv jarayonlari, ta'lim-tarbiyaning mazmuni, metod va vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish tizimidir», -deb ta'rif beradi.

Innovatsion texnologiyaning fan sifatidagi vazifalarini o'qitishning har bir bosqichida ta'limning mazmunini belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, predmetning mazmuniga kiritish uchun vaziyatli matnlar, testlar tayyorlash, shaxsda shakllantirish nazarda tutilgan kasbiy sifatlar va ma'naviy fazilatlarini o'zlashtirishga yunaltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, ta'limning natijasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash ularni ob'ektiv baholash uchun test vazifalarini tayyorlash kabilar tashkil qiladi.

Ta'limda innovatsion texnologiya XX asrning oxirlarida deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarda tez tarqalib, nufuzli YUNESKO tashkiloti tomonidan ham tan olindi va qo'llab-quvvatlandi. Hozirda ko'pgina mamlakatlarda muvoffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda.

Ko'pgina mamlakatlar innovatsion texnologiyadan foydalanib, ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda, o'quvchilar o'zlashtirishini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdilar

“Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari ” fanini o'rganish davomida mashg'ulotlarda ta'limning axborot texnologiyalari, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, interfaol metodlar qo'llaniladi. Bundan tashqari, “Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari ” faniga tegishli darsliklar, o'quv qo'llanmalar, tarqatma materiallar, ta'limning ko'rgazmali va texnik vositalaridan foydalaniladi.

Ta'lim-tarbiya sohasida olib borilayotgan tub islohatlarning asosiy yo'nalishlari:

- ta'lim tizimini, mazmunini isloh qilish;
- ta'lim-tarbiya boshqaruvini isloh qilish;
- ta'limning bozor iqtisodiyotiga asoslangan mexanizmini yaratish;
- ota-ona, o'qituvchi. O'quvchining ta'lim jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarini shakllantirish;
- va bu islohatlarning bosh harakatlantiruvchi kuchi yangi innovatsion texnologiyani amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Yangilik –bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oya, bu g'oya obyektiv ravashda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha –yangilikochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

Yangilikni joriy qilish predmet mazmuniga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi;

1. Texnik –texnologik, tizimli.
2. Mahsuliy yoki natijaviy.
3. Ijtimoiy.

O'z navbatida, bo'larga quyidagilar kiradi:

- a) iqtisodiy;
- b) tashkiliy-boshqaruv;
- d) xususiy-ijtimoiy;
- e) huquqiy;



Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo’la olmaydi.”Dars muqaddas” konsepsiyasi ta’lim tizimidagi asosiy innovatsiyalardan biri bo’lib, unda o’qituvchi va o’quvchi fajliyat hamkorlik asosida tashkil etilishigaalohida e’tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isamiddinov.M va Sulaymonov R. “Naxshab”. Toshkent “Manaviyat” 2004y.
2. Rustam Sulaymonov “Naxshab—unutilgan tamaddun sirlari”.



TARIX DARSLARIDA O'QUVCHILARDA TARIXGA SAYOHAT TASHKIL ETISH

Ganjayev Umrbek Allabergan o'g'li
Aryazova Gulora Xayitbayevna
 Xorazm viloyati Urganch shahar
 3 – maktab tarix fani o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix darslarida tarixga sayohat, o'quvchilarga tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlar berish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: sohibqiron, tarix, tarixga sayohat, milliy qadriyat.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, vatanimiz tarixini yana ham chuqurroq o'rganish imkoniyati vujudga keldi. Sal kam bir yarim asr davom etgan, dastlab rus podshosi, so'ngra bol'sheviklar o'rnatgan sho'ro saltanatining mustamlakachiligidan ozod bo'lish katta tarixiy voqea bo'ldi. Uning aks sadosi mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va milliy qadriyatlarini, o'zlikni anglash, ayniqsa, tariximizga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinib turibdi. O'zligini anglashga bel bog'lagan har bir xalq va millat avvalo buyuk ajdodlari, siyosiy, harbiy arboblari va ulug' allomalarining mamlakat qolaversa jahon tarixida tutgan o'rni, xizmatlarini e'zozlashni o'rniga qo'yadi, boshqalarga ham uni e'tirof ettiradi. Biz tutgan bu yo'l buyuk sohibqiron Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Iso at-Termiziy, Imom al-Buxoriy, Najmiddin Qubro, Ahmad Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqa allomalarimizning tavallud topgan sanalarini nishonlashda o'z isbotini topdi.

O'zbekiston Respublikasini XXI asrda jahonning ilg'or va etakchi davlatlari qatorida bo'lishini ta'minlashga qodir va qobil izdoshlarga ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Ular ona Vatan-O'zbekiston manfaatlarini har jihatdan, chunonchi siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ma'naviy-ruhiy himoya qila oladigan salohiyatga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun nafaqat hozirgi zamon dunyoviy ilmlarini, balki o'tmishda o'tgan buyuk bobolarning hayoti va faoliyatini mukammal bilishlari shu kunning asosiy talabi hisoblanadi. Bularni egallamay turib biror bir shaxs komillik darajasiga erisha olmaydi.

Tarixda o'tgan buyuk shaxslarimiz, ayniqsa. Amir Temurning hayoti va faoliyati bunda asosiy mezon bo'la oladi. Uning har qanday mushkul siyosiy, harbiy, diplomatik vaziyatlardan chiqib keta olish zakovati, mardligi, jasorati, vatanparvarligi, topqirligi, temir irodaviy xususiyatlari avlodlar uchun ibrat, hayot maktabi, vatanga xizmat qilish namunasi bo'lib qolishi lozim.

Endigi gap ana shunday bemisl va betakror, butun jahon e'tirofiga sazovor bo'lgan buyuk siyosiy va harbiy arbob, fan vak madaniyat homiysi sohibqiron Amir Temurning hayotini chuqur va zehn bilan o'rganishda qolgan. Yoshlarimiz uni qanchalik mukammal o'rgansalar, undan shunchalik saboq oladilar. O'zbekistonning sobitqadam, jasur, aql-idrokli ona vatan qudratini jahonga ko'z-ko'z qilishga qodir va xos fidoiy farzandlari bo'lib etishadilar.

Vatanimiz va davlatchiligimiz tarixida buyuk sohibqiron Amir Temur alohida o'rinda turadi. Ulug' bobomiz shaxsining murakkabligi munozarali muammo emas. Shu boisdan ham Amir Temurga baho berganda uni bir xil andoza va o'lchov bilan baholab bo'lmaydi. Uning to'g'risida keragidan ortiqcha ko'p kitoblar, maqolalar, esdaliklar, sahna asarlari yaratilgan. Ammo ular bir-biriga o'xshamaydi, bir-birini inkor etadi. B uyoyma manbalarining ba'zilarida Temurning ijtimoiy-siyosiy va davlat faoliyati xolisona va ilmiy nuqtai nazardan yoritilgan bo'lsa, boshqa birovlarida g'arazlik, ochiqdan-ochiq dushmanlik, ko'rolmaslik jarayonida turib, sub'ektiv fikr va xulosalar ilgari surilgan. Bunday manba asarlarining mualliflari ulug' bobolarimiz Amir Temurni «qonxo'r», «bosqinchi», «kallakesar», «o'g'ri» va hakoza deb tuhmat qiladilar. Masalaning eng ayanchli va mudhish tomoni shundaki, G'arbiy Evropaning ilg'or mamlakatlari Angliya, Frantsiya, Germaniya va boshqalarda ilm-fan va davlat arboblari Temurga ijobiy baho berib, ilmiy, badiiy va sahna asarlari yozganlar, uni e'zozlab o'quv yurtlari dasturlariga kiritganlar va muzeylar tashkil etganlar. Masalan, nemis olimi Dagenxard 1913 yildayoq Ovrupa sharqshunoslarining Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan asarlar ro'yxati bibliografiyasini chop etgan edi.

Taniqli frantsuz olimlari L. Keren «Temerlan yoxud sohibqiron salatanati» va J. Ru «Temerlan» nomli kitoblarida har biri amir Temur haqidagi 100 dan ortiq asar ro'yxatini keltirgan bo'lsalar, «Ulug'bek astronomiya sultoni» (Parij-1994) nomli to'plamda 40 asr, «Samarqand 1400-1500: Temerlan poytaxti: saltanat va uyg'onish yuragi» (Parij-1995) nomli asarda 27 kitob haqida



ma'lumot berilgan.

Abdulhay Habibiyning 1974 yili Tehronda nashr etilgan 1018 sahifadan iborat «Temur davri san'atlari» nomli asari Amir Temur va temuriylar sulolasi tarixi, majaniyati va san'atiga oid kitob va risolalar ro'yxati hamda dunyoning qaysi kutubxonalarida saqlanayotganligi bilan tanishtirishga bag'ishlangan.

«Ahmad Zakiy Validiy asarlarining tartibi» kitobida 23 asar va kitob ko'rsatilgan (Yosh Leninchi gazetasi 1991 yil 1 iyun') yoki N. Muhiddinovning «Temuriylar tarixi-xalqimiz tarixi» maqolasida temuriylar sulolasi to'g'risidagi 44 dan ortiq manba, asarlar ro'yxati berilgan (Fan va turmush 1992 yil 11-12 sonlar).

Akademik B. Ahmedovning «Tarixdan saboqlar» va «Amir Temur» asarlarida sohibqiron va temuriylar sulolasi haqida ko'pgina tarixiy hamda hozirgi zamonda chop etilgan kitoblar tahlil berilgan.

Rus sharqshunoslari ham XIX asrning II-yarmidan Amir Temur shaxsini o'rganishga astoydil kirishganlar. eng avvalo bir qancha xorijiy davlatlarda chiqqan asrlar rus tiliga tarjima qilingan. Masalan, taniqli sharqshunos olim N. Ostroumovning tashabbusi bilan va uning rahbarligida frantsuz tilidan tarjima qilingan «Temur tuzuklari» ni va e. M. Langleyning «Temur hayoti» nomli asarlarini ko'rsatish mumkin. Bulardan tashqari Kastiliya qirolining elchisi Rui Gonsales de Klavixoning «Amir Temur saroyiga sayohati kundaliklari» 1990 yili Moskvada «Nauka» nashriyotida qayta nashr etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev H.B. Amir Temur va temuriylar saltanati. - Toshkent: Kamalak, 1996. - 124 b.
2. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar t arixi / Boboyev H.B., Vohidov H.V., Dadaboyev Y.T., Vohidova D. – Toshkent: TDYUI, 2003. – 205 b.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000